Navoiy „Layli va Majnun‘‘ dostonining o‘rganilishi

Turdiyeva Maftuna

ToshDO‘TAU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Adabiyot tarixidagi kelib chiqishi bir necha asrlar ilgariroqqa borib taqaladigan durdona asarlardan biri “Layli va Majnun” qissasi bo‘lib, u jahon adabiyotida yaratilgan eng g‘amgin qissalardan biridir. U o‘nlab yozuvchilar, xalq ijodkorlari tomonidan qayta-qayta ishlangan, Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari orasida nihoyatda keng tarqalgandir. Alisher Navoiyning „Layli va Majnun‘‘ dostoni o‘z salaflarining ijodiy an’anasini davom ettirgan shoirning shu nomdagi ilk turkiy tilda yaratilgan dostoni bo‘ldi.

Kalit so‘zlar: Layli va Majnun, Sharq mumtoz adabiyoti, Krachkovskiy, rivoyat, genezis, sujet, Qays, obraz.

Study of the epic of Navoi, “Layli and Majnun”

Abstract: one of the masterpieces in the history of literature, the origin of which goes back several centuries, is the story “Layli and Majnun”, which is one if the saddest stories created in world literature. It has been repeated by dozens of writers, folk artists and is extremely popular among the peoples of the Near and Middle East. Alisher Navoi’s epic “Layli and Majnun” was the first epic written in turkish by the poet who continued the creative tradition of his predecessors.

Key words: Layli, Majnun, Oriental classical literature, Krachkovskiy, narrative, genesis, sujet, Qays, image.

Alisher Navoiy ijodining poetik aspekti yaxshi o‘rganilganiga qaramay, genezisi, g‘oyaviy manbalari yetarlicha tadqiq etilgan emas. Navoiy ijodining manbalariga oid mulohazalar I. Y. Krachkovskiy, Bertels, S. Narzullayeva, T. Ahmedov, A. Qayumov, A.Hayitmetov, N. Mallayev tadqiqotlarida, „Xamsa‘‘ muqoyasasiga bag‘ishlangan ishlarda va ayrim maqolalarda tahlil etilgan. Qolaversa, Navoiy ijodining badiiy xususiyatlariga oid ko‘plab tadqiqotlar yaratilgan bo‘lsa-da, „Layli va Majnun ‘‘ dostoni yaxlit holda an’ana va genetik asosda tekshirilmagan.

„Layli va Majnun‘‘ dostoni shu kungacha turli yo‘sinlarda o‘rganilgan. Dastlabki tadqiqotlarda, xususan, Krachkovskiy ishida doston genezisi tekshirilib, bunga oid bir qancha konkret mulohazalar berilgan. Krachkovskiyning „Arab adabiyotida „Layli va Majnun‘‘ dostonining ilk tarixi‘‘ nomli maqolasi bu dostonning genezisiga doir ilk tadqiqot bo‘lsa, Bertelsning bu mavzudagi tadqiqotida asosan, doston sujeti hamda Nizomiy va Navoiyning „Layli va Majnun‘‘ dostonlari qiyoslanadi. Aziz Qayumov esa „Ishq vodiysi chechaklari‘‘ kitobida mazkur dostonni kompozitsion tahlil qiladi. Olima S. Narzullayeva o‘zining „Sharq xalqlari adabiyotida „Layli va Majnun‘‘ mavzusi” nomli dissertatsiyasida Nizomiy, Xusrav Dehlaviy, Jomiy, Xotifiy, Navoiy, Umir Boqiylarning “Layli va Majnun”dostonlarini qiyosiy tahlil qilish asosida obrazlar, sujet chiziqlari evolyutsiyasi hamda bu asarlarning g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari, dostonning turli variantlari yaratilish davriga xos ijtimoiy jarayonlar, dunyoqarash izlanadi. Va yuzaga kelgan fikrlarda har bir muallif badiiy mahoratining o‘ziga xosligi va she’rlar arxitektonikasida, personajlar xarakterining talqini bayon

etiladi. Har bir dostonning o‘z muallifi ijodida, o‘sha davr va undan keyingi davrlar adabiyotida tutgan o‘rnini aniqlash, Navoiy dostonining Fuzuliy, Andalib va boshqa mualliflarga ta’sirini aniqlashga katta e’tibor qaratilgan. T. Ahmedovning 1965-yilda e’lon qilingan “Alisher Navoiyning , “Layli va Majnun” dostoni” nomli dissertatsiyasi ham mazkur mavzudagi yaxshi tadqiqotlardan biri sanaladi. Bu ishda “Layli va Majnun” dostonining yozilish tarixi, Nizomiy va Dehlaviyning “Layli va Majnun” dostonlari, turkiy adabiyotda Navoiygacha yaratilgan “Layli va Majnun” hikoyalari, Xoju Kirmoniyning “Gavharnomasi” va ularning hammasiga Navoiyning munosabati masalalari; Alisher Navoiyning “Layli va Majnun” dostonida olg‘a surilgan g‘oya va uning obrazlar sistemasi tahlil etilgan.

N.Mallayevning “So‘z san’atining gultoji” kitobi ham mazkur tadqiqot doirasidagi sara manbalardan bir hisoblanadi. Unda Navoiy “Xamsa”si tarkibidagi dostonlar mazmun va kompozitsion jihatdan tahlil qilinadi. Xususan, bu manbada “Layli va Majnun” dostonining kelib chiqish genezisiga doir fikrlar ham keltirib o‘tilgan: “Layli va Majnun” ko‘p asrlik murakkab tarixga ega. Uning kurtaklari akademik I.Y. Krachkovskiy ta’kidlaganidek, VII asrning ikkinchi yarmiga borib taqaladi. Ayrim arab manbalarining ma’lumotiga ko‘ra, Majnun tarixiy shaxs bo‘lib, u Bani Omir qabilasidan chiqqan, asli nomi Qays ibn Mulavvah (yoki Qays ibn Muod) bo‘lgan. Qays o‘z qabiladoshi Layli degan qizni sevgan, o‘z sevgisi va hijron alamlari haqida mungli she’rlar bitgan. …Majnun nomiga nisbat berilgan she’rlar turli rivoyatlarning vujudga kelishiga negiz bo‘lib xizmat qilgani kabi rivoyatlar Layli va Majnun haqida yozma adabiyotda yirik polotnolarning paydo bo‘lishiga zamin tayyorladi”[1].

Atoqli olim N.Komilovning “Tasavvuf”, “Xizr chashmasi” kabi kitoblarida Majnunning tasavvufiy talqini bayon etilgan.

Xulosa. Mavjud tadqiqotlarda “Layli va Majnun” dostoni genezisi maxsus tadqiq etilmagan. Holbuki, „o‘tgan asrning so‘nggi o‘n yilligi, joriy yuz yillik ibtidosida shakllanib kelayotgan yangi estetik tafakkur Navoiy ijodini, jahon, shuningdek, islom Sharqi badiiy voqeligi doirasida o‘rganish zaruratini sezyapti”[2] . Shunday ekan, mazkur doston genezisini chuqur o‘rganish, uning xamsanavislikdagi ahamiyati, Layli va Majnun qissasining “Xamsa” beshligida an’anaga aylanish omillarini aniqlash; Navoiy “Xamsa”sidagi ushbu uchinchi dostonning yaratilishida shoirning o‘ziga xos yondoshuvini aniqlash; Navoiyning ushbu an’anaga qo‘shgan hissasini aniqlash kelgusidagi tadqiqotlarimiz asosini belgilaydi.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy . Layli va Majnun. - Toshkent: G‘. G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2006. – 317 b.

2. Ahmedov T. A. Navoiyning „Layli va Majnun‘‘ dostoni. - T.: “Fan” nashriyoti. 1970. 220 b.

3. Арабская поезия средних веков . Художественная литература. Том 20. Москва: 1975. И .Фильштинский.767 с.

4. Крачковский И.Ю. Том II. Избранные соч. – Москва-Ленинград:1956. 643с.

5. Mallayev N. So‘z san’atining gultoji. T.: Fan. 1991. 152 b.

[1] Mallayev N. So‘z san’atining gultoji. T.: Fan. 1991. 152 b.

[2] Jo`raqulov U. Nazariy poetika masalalari.- Toshkent: G`. G`ulom nomidagi NMIU, 2015.- B. 133.